

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

Q.V.Yo'lchiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldosheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

ТИЛШУНОСЛИК

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO‘K: 812.512.133. -1.6.

ABDULLA SHER SONETLARI TAHLILI**ANALYSIS OF ABDULLAH SHER'S SONNETS****АНАЛИЗ СОНЕТОВ АБДУЛЛЫ ШЕРА****Yo‘lchiyev Qahhor Vahobovich **

Farg‘ona davlar universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Sherning lirik mahorati sonetlar tahlili yordamida ochib beriladi. Kirish qismida mavzuning dolzarb ekanligi dalillanadi. Adabiyotlar tahlili va maqolaning metodologik asos qismida esa bir qator olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilinadi. Bunda sonetning kanonik shakl sifatida Italiya she‘riya shakllangani va keyinchalik dunyo xalqlari she‘riyatida asosiy janrlardan biriga aylanganligi ta‘kidlanadi. Tahlil va natijalar qismida esa Abdulla Sherning bir nechta soneti tahlil qilinadi. Maqola oxirida esa izlanish natijasida kelingan xulosalar ifodalanadi.

Аннотация

В статье лирическое мастерство народного поэта Узбекистана Абдуллы Шера раскрывается посредством анализа сонетов. Введение доказывает актуальность темы. При анализе литературы и основной части статьи упоминаются научные труды ряда ученых. Подчеркивается, что сонет сформировался как каноническая форма итальянской поэзии и в дальнейшем стал одним из основных жанров в поэзии народов мира. В разделе «Анализ и результаты» анализируются несколько сонетов Абдуллы Шера. В конце статьи выводы, сделанные в результате исследования.

Abstarct

The article succinctly analyzes thenational poet of Uzbekistan, Abdulla Sher’s sonnets. Appreciation for the topic is established and a literature review is made citing scholarly works including the rootcause of sonnet structure which is in Italian poetry and its spread across world. The analysis section describes the structure and themes of several sonnets of Sher as well as their stylistic features and summarizes the main results in conclusions.

Kalit so‘zlar: obraz, sonet, mavzu, katren, terset, qofiya, band, kompozitsiya, adabiy ta‘sir.

Key words: ekphrasis, sonnet, theme, quatrain, tercet, rhyme, stanza, composition, literary impact.

Ключевые слова: образ, сонет, тема, катрен, терцет, рифма, строфа, композиция, литературная влияния.

KIRISH

Adabiy jarayondagi yangilanish, o‘zgarishlar, adabiy hodisa darajasidagi voqeliklar bir xalq yoki hudud doirasida qolib ketmaydi. Xalqlarning madaniy aloqasi natijasida, u bir xalqdan ikkinchi xalqning madaniy hayotiga kirib boradi. Shuning uchun ijodiy ta‘sir adabiy jarayonning doimiy tarkibiy qismi sifatida adabiyotshunoslikda etakchi mavqelardan birini egallaydi. Lekin ijodiy ta‘sir ikki xil ma‘noga egaligini ham ta‘kidlash lozim bo‘ladi. Ya‘ni bir xalq adabiyoti doirasidagi ta‘sir ichki ta‘sir bo‘lsa, bir xalq adabiyotining ikkinchi bir xalq adabiyotiga ta‘siri tashqi ta‘sir hisoblanadi. Lekin har bir ta‘sir asosida an‘ana va o‘ziga xoslik ham yotadi. Masalan, ma‘lum bir janr, avval, bir xalq she‘riyati doirasida qat‘iy shakl va tartibga tushib, keyin boshqa xalq she‘riyatiga ko‘chadi. Bunda yaratilgan janrning an‘anaviy tusini olgan obraz, mavzu, shakl kabi masalalari boshqa xalqqa ko‘chib o‘tganda ana shu an‘anaviylik ma‘lum ma‘noda saqlanib qoladi. Bu esa adabiyotshunoslik oldida adabiy aloqa va ijodiy ta‘sir, an‘ana va novatorlik kabi masalalarni ham ma‘lum ma‘noda ochib berish talabini qo‘yadi. Shu ma‘noda sonet va uning zamonaviy o‘zbek shoiri Abdulla Sher ijodidagi o‘rnini tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Abdulla Sher ijodida jahon she‘riyatida keng tarqalgan sonet, ballada, xokku, oktava kabi janrlar ta‘siri sezilarli o‘ringa ega. Ayniqsa, sonet shoir ijodida salmoqlik ahamiyat kasb etgan. Lekin adabiyotshunoslikda shoirning ana shu asarlari tahlilga tortilmagan. Ularni adabiy aloqa va

ADABIYOTSHUNOSLIK

ijodiy ta'sir aspektidan tadqiq etishga ehtiyoj mavjud. Bunda ikki va undan ortiq shu janrdagi she'rlarni tahlilga tortiladi. Zero, "Binar, ayrim hollarda trinar, tipologiya global badiiy ma'no uchun qulay ijodiy sharoit, keng imkoniyat ochadi. Badiiy matn, so'z va obrazlarni tipologik qiyoslash kreativ amal bo'lib, badiiy asar ma'no sathini kengayishi va chuqurlashuviga zamin yaratadi"[Suvon Meli, 165].

Ma'lumki, "sonet (italyancha "sonetto", provanscha sonet – qo'shiq so'zidan) – qat'iy she'r shakllaridan biri, shakl xususiyatlariga ko'ra, tasnif etiluvchi lirik janr. Sonet o'n to'rt misradan tarkib topib, ikkita katren va ikkita tersetni o'z ichiga oladi. Sonetning kanonik shakli ikki ko'rinishda bo'lib, "italyancha" variantida katrenlari abab, abab, tersetlari esa cdc, dcd yoki cde, cde tarzida; "fransuzcha" variantida esa abba, abba tersetlari esa ccd eed yoki ccd, ede tarzida qofiyalanadi. She'riyat tarixida sonetning qat'iy talablaridan chekinish hollari ham uchraydi. "Inglizcha" sonetlar uchta katren va bitta distix tashkil topadi"[Lug'at, 279].

"Kompozitsiya she'riy tafakkur harakatini yetkazish uchun kerak bo'ladi. Bu esa bandlarning grafik o'ziga xosligi bilan izohlanadi: birinchi katren – mavzuni namoyon etadi, ikkinchisi – patetik rivojni, birinchi terset – yangi fikrni, ikkinchi terset esa birinchisiga qarama-qarshi ravishda "ikki mavzuni yarashtirish"ni aks ettiradi. Alohida mazmuniy yuklama yakuniy band – "sonet qulfi"ga tushadi. Bu kompozitsiyon mezonga hamma vaqt ham amal qilinmaydi". [Fedotov I.O., 240-241] Bu avvalo, sonet bandlarining turfaligi bilan bog'liq sanaladi. Shu yerda sonetning lirik asar sifatida bir qator o'ziga xosliklari borligi yuzaga chiqadi. "So'z san'atining spetsifik xususiyatini aniqlay olishda ichki – badiiy - psixologik omillar bilan bir qatorda – tashqi ijtimoiy - falsafiy fikr taraqqiyotini ham hisobga olish lozim" bo'ladi [Qurbnboyev, 12]. Shunga ko'ra sonet spetsifikasida ijtimoiy muhitning ta'siri ham sezilib turadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Adabiyotlar tahlillardan ma'lumki, sonet bir xalq she'riyatidan boshqasiga o'tgan, bu esa sonetda o'zgarish yuz berishiga omil bo'lgan. Bundan tashqari, sonetning vatani Italiya hisoblansa-da, zamonaviy she'riyatda u etakchi janr sifatida barcha xalq she'riyatida ham uchraydi. Xususan, Abdulla Sher ijodida sonet salmoqli o'ringa ega. Avvalo aytish kerakki, Abdulla Sher sonetlari "italyancha" variantda bitilgan bo'lib, ularda visol, ma'shuqa tavsifi, ishq, hijron mavzulari etakchilik qiladi. Ular shaklan sonet bo'lsa-da, shoir ularga o'ziga xos ifoda usullarini kiritgan. Jumladan, quyidagi sonet oxirigacha savol-javob usulida bitilgan bo'lib, o'z navbatida uning personaji ham ikki kishi shaxs bo'ladi:

- Ne qadim yo'ldir bu, uzun-uzundan,
O'ng cheti vafo-yu, chap yoni jafo?
- Ul ishqdir, bir yon g'am, bir yonda safo,
Masnaviy baytidek juftlikdan mavzun.

Aytish kerakki, savol-javob usuli orqali lirik yaratish an'anasi o'zbek xalq og'zaki ijodida, o'zbek mumtoz she'riyatida keng tarqalgan. Shu ma'noda shoir sonet janrini o'zbek she'riyatiga olib kirar ekan, uning asl "italyancha" shaklini saqlagan holda, an'aviy usulni joriy etgan. Birinchi katren ishqqa to'la inson umri haqida savol beriladi va shunga yarasha falsafiy javob beriladi. Savol tarkibida dunyo haqidagi Sharq falsafasida keng tarqalgan dualistik dunyoqarash yotadi. Ya'ni, dunyoning ikki qirrasini, ikki etakchi xususiyati – vafo va jafo, ham va safo, baxt va xato, shoh va gado kabilar sanalishi ortida badiiy matnga o'zaro zidlashish, kontrastlik xususiyatini bergan. Natijada she'r sodda lekin mazmunan teran mazmun kasb etgan. Uning birinchi bandidan biz olam va uning mohiyati haqidagi umumiy tezisni uqishimiz mumkin. Shoir olam ikki qutbdan iborat bo'lib, u yaxlit tizim sifatida bir yo'lga birikishi va inson undan ishq bilan yurib o'tishi haqidagi fikrni ilgari suradi. Olamning hamu jafosi yaxlitlikda mavzun, ya'ni tartibga solingan, chiroyli bo'lishini uqdiradi.

Ikkinchi katrenda yuqoridagi ijtimoiy masala yanada chuqurlashtirilishga harakat qilinadi:

- Bu qadim tarozu, ayt, sirli nechun,
Bir palla to'la baxt, bir palla xato?
- Ul ishqdir, bir yon shoh, bir yonda gado,

Bir misra Yusufdir, bir misra Majnun.

Banddagi tarozu va uning ikki pallasi o'ziga xos uchlik tizim bo'lib dunyo, jamiyat va inson munosabatlarining asosi ekanligi ta'kidlangan. Tarozu olam va unagi baxt, baxtsizlik ramzi bo'lib, har qanday ramzlar mutloq aynanlikka ega emasligini, har bir vaziyatda ham ramz o'zi

bildirayotgan ma'no va undan anglanadigan mohiyat, kamida qisman farq qilishi, ko'pincha undan ko'proq o'zagacha bo'lishini nazarda tutsak, tarozi va uning o'rtasi hamda undan tarqalgan ikki palla (baxt, xato) juda kamdan kam vaziyatda barobar kelishini tushunish mumkin. Demak, shoir o'z she'rida dunyoda muvozanat ozgina buzilishi tabiiy hol, agar me'yordan oshsa, fojeaga olib kelishini bilgan holda fikr yuritmoqda. Ammo ana shu muvozanatni tutib turadigan vosita sifatida ishq keltirilgan. Bu mavzu xuddi Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Xisrav suhbatlariga o'xshab ketadi. Ammo, unda ikki raqib obraz o'rtasida savol javob bo'lgan. Buerda esa biluvchi bilan bilmaydigan kishi, ustoz va shogirddeyish mumkin darajadagi kishilar o'rtasida savol-javob bo'lgan. Lekin unda ishqning qudrati chesizligini u shoh va gadoni bir xil darajaga tushurishini ta'kidlab, Yusuf, Majnun obrazlarini esga oladi. Shu erda ishqning tasavvufona talqiniga yaqin kelinadi. Ya'ni haqiqiy ishq Balx hokimi Ibrohim Adhamni gadoga aylantirgandek va u ham bundan xursandligini ta'kidlaydi. Lekin bu erda ilohiy ishqdan ko'ra ko'proq majozga yaqinroq ta'riflar keltiriladi:

- Bu nedur, ko'z yoshda aks etar quyosh,
Kipriklar chapakda, kular qorachiq?
- Bu ishqqa etishgan, sevimli bardosh.
- Bu ne mil, har kuni necha bor "CHiq! CHiq"
- Deb o'zi oynadan bir chiqarman bosh?
- Bu ishqning ko'ksiga yo'nalgan sanchiq!

Mazkur bandlar sonetning terset bandlari bo'lib, ular avvalgi bandlar – katrenlardagi masalani yanada chuqurroq bayon qilishga yo'naltirilgan. Ammo oxirida yozuvchining shaxsiy xulosasi beriladi. Unda ishqning ham dushmani borligiga ishora mavjud, bo'lib, bu dunyoda hamma narsa nomukammal, hafaqat Yaratgan zotgina tengsiz ekanligiga oid badiiy-falsafiy xulosaga kelinadi. Shu ma'noda ishq tavsifiga bag'ishlangandek boshlangan ushbu sonet katta ijtimoiy-falsafiy masalani ham o'zida mujassam etgan, deyish mumkin.

Abdulla Sherning sonetlarida mavzu lirik subyektning romantik kayfiyati, ishq, visol haqida bo'ladi. Fikr isboti uchun quyidagi sonetni tahlil etamiz.

Tun bo'yi vujuding kuyladi yonib,
Siynalar qo'shig'i umrimni yoqdi
Hatto oy botolmay, tongda ham boqdi
Yo'lidan adashib, quyoshdan tonib. [Sher, 150]

Mazkur parcha sonetning birinchi ketren bandi bo'lib, abba tarzda qofiyalangan. Kompozitsion joylashuvga ko'ra u birinchi o'rinda turadi. Unda mazmuniy kompozitsiyagako'ra tezis hisoblanadi. Undagi ma'shuqa go'zalligi haqidagi umumiy fikrlar berilgan. Mazmuniga ko'ra u Petrarkaning ishqiy sonetlariga juda yaqin keladi. Darhaqiqat, sonet janri Italiyada paydo shakllangan. Uning nazariya asoslari esa olim Bexer tomonidan ishlab chiqilgan. Lekin sonetning ilk namunasi sifatida Petrarkaning ijodi e'tirof etiladi. Bexer sonetni badiiyatning eng yorqin dialektik ko'rinishlaridan biri deb atagan edi. Sonetning dastlabki to'rt misrasini u tezis sifatida 1- katren, keyingi to'rtligini antitezis sifatida 2- katren va so'nggi ikki uchlikni sintez deb atadi. Balzak esa "muammo – o'sish – kulminatsiya - echim" tarzida ham baholaydi[sayt].

Qofiyalar tartibida ham o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, buni biz lug'atlardan olingan mulohazada ham keltirganmiz. Sonetda mazmun birbanddan ikkinchi bandga sekin astalik bilan, ammo mantiqiy izchil ravishda o'sibborishi kerak bo'ladi. Sonetning ichki kompozitsiyasiga ko'ra uning har bir bandi mustaqil she'r maqomida bo'lishi zarur. Petrarkaning Shukur Qurbon tarjimasidagi "Madonna Lauraning vafotiga" turkumidagi "Gultoj xazon bo'ldi" deb boshlanuvchi sonetda asosiy masala hijron dardi, noraso dunyoni yozg'irish bo'lishiga qaramay unda taqdiri azal hukmi-farmoniga bo'ysunish holati ham sezilmay qolmaydi [Petrarka, 15]. She'rning ilk katrenida muammo, ya'ni "qashshoq", "shum etim" kabi bo'zlayotgan ruhning "yo'qotganini" izlayotgani holati beriladi, keyingi katrenda lirik qahramon – oshiqning aftodahol holatiga sababkor o'limni chorlash orqali voqea rivojlanadi, birinchi tersetda pokiza muhabbat evaziga, mukofot tarzida oltin – kumushlar emas, balki taqdir hukmi deya berilgan g'oyani og'u yutkancha elkalab borayotgan oshiq holati tasvirlanadi. Bu sonetning kulminatsiyasi hisoblanadi. So'nggi tersetda esa sonet echimi yoki qulfida ko'rinishidan go'zal ko'ringan "Dunyo yillar yiqqan nafis muhabbati"ni shamollarga bir damda sovurib bag'ritoshligini namoyish qilishi bilan yakunlanadi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulla Sher sonetining ikkinchi katrenida esa birinchi katrendagi mavzu rivojlantirilib yuqori nuqtaga ko'tariladi:

Tun bo'yi vujuding erkdan quvonib,
Daryodek buralib, ayqirib oqdi;
Ul ipak karvoni har yon uloqdi
Qo'sh dovon ustida behol to'lg'onib.

Band abba tarzda qofiyalangan, mavzusi esa ko'tarinkiligi, jo'shqinligi bilan ajralib turadi. Kompozitsiya ko'ra, bu band ham tezisdir. Qolgan terset bandlarining birinchisida masalaning echimi beriladi, so'nggi tersetda u xulosalanadi.

Tun bo'yi o'xshading go'zal Zuhroga, —
Titragan falakning ziqna qo'lidan
Yulqinib tushdingmu dorilfanoga?!
Tun bo'yi somonsiz Somon yo'lidan
Sochqilar sochildi etim ma'voga, -
Paridek keldingmu Oqqush ko'lidan?!

Abdulla Sher mazkur tersetlariga kechinmadagi engillik bilan ko'tarinki kayfiyat, Zuhro, Somon yo'li, Oqqush ko'li detallari esa yordamida o'quvchiga murojaatiga romantik tus beradi. Aynan, Oqqush ko'li rus bastakori Chaykovskiyning "Oqqush ko'li" baletiga ishorasi bilan, shoirning mazkur asardan ta'sirlanganiga ham ishora qiladi. Sonetning lirik kechinmasi lirik subyektning romantik tushuncha tasavvurlarini ifodalaydi. Aynan shu xususiyat Abdulla Sher sonetlarini Evropadagi sonetlarga shakldan tashqari, mazmun tomonidan ham nisbatan yaqinlashtiradi. Ammo "Somon yo'li", "Zuhro" kabi detallari uni o'ziga xos ifodasini ham ko'rsatadi.

Syujet masalasi lirik turda ham zamon va makon masalasi bilan birgalikda tasvirlanadi, zamon va makon masalasi esa tasvir joy – sharoiti, vaqt va hajm bilan aloqador bo'ladi.

Biz yoqqan gulxandan osmonlar yondi,
Uchqundek uchdilar tillarang vaqtlar;
Shuladan titradi ulkan daraxtlar,
Chechaklar uyg'ondi, maysa uyg'ondi [Sher, 198].

Shoir o'zining ko'tarinkilik kechgan baxtiyot onlarini tasvirlar ekan o'zi yashagan makon va davrni, romantik tasvir asosida aniq chizgilarda beryapti. Shu erda sonetdagi yuqori kayfiyat, baland ruh, aniq yo'nalish, lirik subektivlik va aniq peyzaj (obektiv tasvir) birlashiv she'rga o'ziga xoslik bag'ishlagan.

Qalblar bir-biriga yana inondi,
Bir-birin quchdilar adashgan baxtlar,
Lablarni titratdi bo'salar, ahdlar,
Yulduzlar qiqirlab, hilol quvondi.

Shoir qisqa satrlarda yulduz, hilol detalli orqali ikki yoshning qalb to'lqinini, ishqdan masrur qalblarni aniq ifodalaydi. Qizig'i ularni undoq edi, bundoq dedi, degan gap so'z va izhorini keltirmasdan, sof lirik tasvirda berish bilan go'zallik yaratgan.

Oqargan chog'ida olisda tog'lar,
Tilga kirganida yam-yashil bog'lar,
Bu yangi dunyodan andak toldik biz.

Tersetdagi makon va zamon masalasi lirik qahramonning bahorga ishorasini bildiradi. Lekin ana shu epic tasvir yaqin belgilardan keyin lirik qahramon o'zining holatini bayon qiladi. Bu erda syujetning ana bir jihati, ya'ni tabiat tasviri va ichki kechinma birlashganini kuzatish mumkin.

Ohista quchoqlab bir-birimizni,
Yuzimizga bosib jim yuzimizni,
Borliqni uyg'otib, uxlab qoldik biz.

Borliqni uyg'otuvchi kuch-qudrat sifatida o'znitan olish, baxt va yaratish timsoli sifatida o'zni anglash sonetlardagi baland kayfiyat, katta estetik zavq talabi bilan yuzaga chiqadi. Natijada ular aniq voqeani aks ettiradi. Adabiyotshunos olim Ummat To'ychiyev lirikada syujet masalasini tadqiq etar ekan, syujetning she'rdagi aks etayotgan kechinmaning makon va zamoniga aloqador ekanligiga e'tiborni qaratdi. «Syujet lirik asarlarning ham mazmun, ham shakl xarakteriga ega bo'lgan unsurlaridan biridir» [To'ychiyev, 28]. Chunki lirik syujetda mazmun kechinmaning xarakter-

xususiyati, uning zamon va makonga nisbatan obyektiv aloqadorligiga bog'liq bo'ladi. Ya'na ham aniqrog'i, lirik qahramonning xayoli, o'yi, kechinmalari ruhiy holatiga bog'liq ravishda aks ettirilayotgan sub'ektning ruhiy xarakati lirik asarning syujetini tashkil etadi. Ushbu holatdan kelib chiqib, syujet meditatif lirika uchun ham xos ekanligini e'tirof etish zarur. Ilmiy manbalarda sonetni qat'iy shakliy belgilariga ko'ra tasnif qilinish jihatidan kelib chiqib lirik turga mansub asar deb hisoblashadi. Lekin undagi lirik subektivlik va obektivlikning birlashishi ham sonetning «sof lirika» deb yuritishga asos bo'ladi. Ushbu she'r turlarida, asosan, kechinma mavjud bo'lib, sharoiti aniqlashtirilmagan holat aks ettiriladi. Mana shu tur lirikada «fabula mavjud bo'ladi... Bunday lirikadagi syujetni «psixologik syujet» deb ham yuritilayotir» [To'ychiyev, 29].

Evropadan o'zbek adabiyotiga adabiy aloqa va ijodiy ta'sir natijasida o'zlashgan sonet o'zbekcha tafakkur tarzi va ifoda bilan qayta yaraldi. Undagi ham lirik syujet, o'ziga xos kompozitsion qurilishi mohiyatan, shakliy jihatlari o'zlashganligini e'tirof etgan holda ta'kidlaymizki, milliy asosdan o'sib chiqqan deyish mumkin. Chunki biz kuzatgan ko'pgina sonetlar kompozitsiyasiga ko'ra «tezis-tezis-antitezis-sintez» shakli mavjud yoki ushbu qurilishning «tugun-rivojlanish - kulminatsiya - yechim» shaklida yozilgan. Demak, sonetda kompozitsion qurilishi ham lirik syujet unsurlari bo'lgan «tugun – kechinma rivoji – kulminatsiya - echim» ga mos kelar ekan, ular uyg'unlikda tasvirlanar ekan, sonet syujetini ham shakl ham mazmun hodisasi ekanligiga yana bir bor amin bo'lishi mumkin. Ushbu holatning isbotini sonetlar misolida ko'rib o'tish mumkin. Masalan, Abdulla Sher ushbu she'rida sevgilisi tasvirlaydida, uning timsolida hayotiy ideali, o'z ruhiy olamining tasvirini aks ettiradi.

Sen oppoq daryosan, har bir titrog'ing

SHiddatli mavjlardan so'ylaydi ertak.

Men esa suzaman - borlig'im eshkak,

Suzaman topmasdan lazzat qirg'og'in [Sher, 186].

Xayol va fantaziya asosida bo'rtib turgan esteti zavq va hayotiy muhabbat o'quvchiga hayotdan mamnunlik, baxtni his etish tuyg'usini ulashadi. Bu erdagi visol tasviri, uning zavq va shavqi insonning olamning markaziga olib chiqib, uni asosiy harakatlantiruvchi qudrat ekaniga ishontiradi. Natijada inson yuksak ideal, asosiy intilish ob'ekti bo'lishi hayotiy asosga ega bo'ladi.

Sen – daryo qizisan, osmon qizisan,

Sen – hayot isisan, orzu isisan,

Islashga yaratmish yaratgan meni.

Bu erda lirik sub'ektning ilk taassuroti istiora va tashbeh yordamida o'ziga xos badiiyat olamini yaratgan hamda sonetning ko'tarinki janr ekanligi isbotlashga uringan va bu ishning uddasidan chiqqan.

Sen — o'tgan yoshligam, umrim izisan,

Ertamning eng yorug', eng pok yuzisan,

Bir senga qaratmish qaratgan meni.

Lirik qahramon qalbida yaralgan mehr, u yaratgan jonzotlarga muhabbat bir butunlikda ekaniga guvoh bo'lamiz. Bugungi odamning bizga noma'lum bo'lgan qirralari, shoir qalbida tug'ilgan chuqur insoniy mazmun aks etgan. Lirik qahramonning eng teran ichki olami, matonati, bardoshi, pokligi go'zal tarzda tarannum etiladi. Ularda hayotga ko'pqirrali detallar orqali nigoh tashlaydi. Inson hayotining samarador bo'lishi, boshqalarga hayotsevarlik tuyg'usini ulashishi, boshqalarga naf etkazish yashash zarurayati haqida teran xulosalar beriladi. Bu haqda taniqli olim Ozod Sharafiddinov quyidagilarni yozadi: “Abdulla Sher poeziyasining yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, unda she'riyatga xos eng ko'tarinkilik, pafos bugungi hayotning aniq nishonalari bilan, real voqealar va hodisalar bilan chatishib ketadi” [Sharafiddinov, 8]. Darhaqiqat shoir sonetlarida balog'at davri, ijodiy etuklik barq urib turibdi.

Syujet unsurlarining o'zbek she'riyatidagi o'rmini tekshirish uchun Abdulla Sherning boshqa bir she'rini tahlil qilamiz. Unda lirik qahramon oddiy hayotiy mayl, tashvish, ehtiyojlar girdobida yashayotgan oddiy odam bo'lib, sonetda o'zining go'zal ma'shuqasi ta'rifu tavsifini beradi:

Qoshlaring egmasin qilich desam gar,

Qilichlar yaroqmas bu zamon uchun.

Hilol-chi — olisda, sovuq erur tun,

Ularni hilolga mengzasam, dilbar.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bu erda lirik qahramon mumtoz she'riyatda an'anaviy tarzda qoshlarni qilichga o'xshatishni, yorning o'zini esa oyga o'xshatishni o'ziga lozim ko'rmaydi. Chunki oyga o'xshatisam, u ham olisda, buning ustiga sovuq, qilich deb ifodalangan qoshlar zamonaviy dunyo uchun tushunarsiz, deya sonetga yangicha badiiy-estetik qarashlarini singdirmoqda. Ma'shuqasiga boshqacha qiyos olib kirishga intiladi. Ana shunday holatni u ma'shuqaning kipriklarini kamon o'qi desam ular to'mtoq, og'izni mumtoz she'riyatdagi kabi mim harfiga o'xshatishni bugun anglash qiyin, chunki begona imlo ichida tashbeh ham sarson deya andisha qiladi. Xo'sh, endi ma'shuqaning ta'rifi uchun nimani keltirish mumkin, degan muammoli savolni qo'yadi-da, uning tashqi go'zalligini keltiradi va ularni xuddi Aleksandr Pushkin ma'shuqasining portretini chizgandek, boshdan oyoq ta'riflaydi. Ularni xonbaliqqa o'xshatib, "*choyshabga g'azallar o'qiganidan*" zavqlanishini bayon qiladi. Aslida ma'shuqaning portretini bunday usulda berish berish Alisher Navoiy yoki Bobur ijodida ham uchraydi. Ammo mazkur o'rinda sonet ruhiyati aynan Bayron yoki Pushkin lirik qahramoni ruhiyatiga tarzidaloigi yaqqolroq ko'rinadi. Bu bilan biz shoirni tadlidchiga chiqarishdan yiroqmiz.

Sonetning ilk misrasidagi lirik qahramon bo'lgan hayot haqiqatlari va tashbeh lardagi nomutanosiblikdan iztirobdagi insonning mulohazalarini sonetdagi o'ziga xos ekspozitsiya bo'lishi mumkin. Sonetdagi lirik qahramonning bu muammoni ko'pchilik tushunmaganidan qiynalishi, iztirobida ekanligi holati va o'zini yangicha tushunchalarga tomon burishi aslida majoziy ma'no kasb etgan bo'lib, hayotdagi yolg'onlardan bezor bo'lgan shoir qalbining haqiqatini izlashga bo'lgan urinishi deya baholash mumkin. Chunki mumtoz go'zallik hamma vaqt go'zal so'z o'yinlari va chiroyli tashbehlar bilan berish insonlarga xos hislat sanaladi. Lekin lirik qahramonning o'zi ham imlo va tushunchalar o'zgartirgan zamondagi odamlardan biri bo'lib, zamonaviy tushunchalar uning maqsad-muddaosiga mos ekanligini ta'kidlanadi. Xotima yoki "*choyshabga o'ralib g'azal o'qigan oyoq*" tasvirida u qadar yuksak zavq va ideal yo'qligi, yolg'onlar va'da qiluvchi kunni qarshi olishi holati gavdalantiradi. Lirik qahramon o'zining haqiqat va badiiy so'z haqidagi kechinmalarini mana shu tarzda holda talqin qiladi.

XULOSA

1. Abdulla Sher sonetlarida sof kechinma tavsifida ham lirik syujet mavjud ekanligi va u ruhiy voqelik tasvirlari orqali berilgani tahlillar jarayonida isbotini topdi. Syujet sonetda ham, u lirika janri bo'lganligidan, o'y-fikr harakati, uning dinamikasi sifatida ko'rinadi. Ammo badiiy fikr obrazli emotsional-hissiy ifodalangan.

2. XX asrning etmishinchi-saksoninchi yillarida sonet janri o'zbek she'riyaida mustahkam o'ringa ega bo'ldi. Kanonik lirik janr sifatida asl shakliiy xususiyatlarini saqlagan holda yangicha badiiy ifoda yo'sini, mavzu ko'rinishini olgan. Buni biz Abdulla Sher ijodi misolida ko'rsatishga intildik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар. – Тошкент, Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2012. – 400 б.
2. Курбонбоев И. Ҳозирги ўзбек шеъриятида услубий-шаклий изланишлар. Фил.фан. илм.дар. олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – Б. 22 б.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.
4. Милиев Сувонкул (Сувон Мели) Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси. Ф.ф.д. дис. – Тошкент, 2019. – 260 б.
5. Тўйчиев У. Адабий тур ва жанрлар. 3 томлик, 2-том. – Тошкент: Фан, 1992. – 302 б.
6. Шарафиддинов О. Сўз боши ўрнида / Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар. – Тошкент, Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2012. – Б.3-9.
7. Федотов О.И. Сонет / Поэтика: слов, актуал. терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. — М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. — С.240-241. (358 с.)
8. Petrarka. Sonetlar. – T.: Sharq, 2011. – www.ziyouz.com.uz. ziyonetkutubxonasi.
9. www.e-adabiyot.uz. Sonnet.